


# TIL VA DIL





1. Gapirmasdan, imo-ishoralar orqali bugungi ob-havo, hozirgi kayfiyatingiz haqida bir-biringizga ma'lumot bering.



2. Matnni o'qing. Adib nima uchun bu holatga tushganini izohlang. Shunga o'xshash vaziyat sizda ham bo'lganmi? Javobingizni izohlang.

...Nihoyat Londondan Toshkentga uchadigan bo'ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: "Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!"

Rostini aytсам, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so'zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag'in yuzlab xorijiy yo'lovchilar o'tirgan kemada!..

*O'tkir Hoshimov*



3. She'riy parchalarni ifodali o'qing va savollarga javob bering.

1 Ming yillarkim bulbul kalomi  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Ammo sho'rlik to'tining holi  
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman!

*Abdulla Oripov*

2 ...Sen o'zingsan alla bilan dilga tushgan  
Va ilk bora "ona" deya tilga tushgan.  
Koshg'ariydan tortib barcha bobolarim  
Menga faqat til hikmatin o'rgatishgan.

Shu til borki, shu el borki – men ham borman,  
Tilin aziz bilganlarga do'stman, yorman.  
Qo'lga qalam tutdim, demak, ajdodlardan  
Avlodlarga so'z tashuvchi dastyorman!

*Orif To'xtash*

3 ...Sensiz na ilm bo'lar,  
Na fikr, bilim bo'lar.  
Sen bo'lmasang, so'zlarning  
Bag'ri ming tilim bo'lar.  
Onajon, ona tilim,  
Mening shohona tilim.

*Mirtemir*







1. Uch she'ni birlashtiruvchi jihat nima deb o'ylaysiz?
2. Abdulla Oripov she'rida nima uchun to'ti tilga olingan?
3. "Sen bo'lmasang, so'zlarning bag'ri ming tilim bo'lar" deganda nimani tushundingiz?
4. Sizningcha, kimga nisbatan "ajdodlardan avlodlarga so'z tashuvchi dastyor" degan jumla ishlatilgan?
5. Til orqali dilga yo'l ochiladi deganda nimani tushunasiz?
6. She'rlarga sarlavha toping.



4. So'zlarni izohlari bilan moslab daftaringizga yozing.

Diqqat, bitta izoh ortiqcha.

|   |         |
|---|---------|
| 1 | kalom   |
| 2 | yaxlit  |
| 3 | tilim   |
| 4 | shohona |
| 5 | hikmat  |
| 6 | ajdod   |
| 7 | avlod   |
| 8 | dastyor |

|   |  |
|---|--|
| A | qovun yoki tarvuzning kesilgan bo'lagi |
| B | hashamatli, shohlarga xos              |
| D | donolikni ifodalovchi so'z             |
| E | shoh yashaydigan saroy                 |
| F | ota-bobolardan qolgan zurriyot         |
| G | yordamchi, ko'mak beruvchi             |
| H | ota-bobolar                            |
| I | butun, qismlarga bo'linmagan           |
| J | so'z, gap, nutq                        |



Harflar zanjiridagi so'zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

NUTQMNGSHEVAOADABIYEDBAHSIJTIMOIYLAHJA  
 FAXRNTNOTIQSUHBATTILPOLIGLOTO'ZBEKQRHF  
 MAQOMMVATANBFITMADHIYAMUOMALAONA





1. Husnixat nima?
2. Yozuvingiz tufayli kimlardan maqtoov yoki tanbeh eshitgansiz?



## Husnixating bo'lsa...

1

“Negayam ikkinchi smenaga o'tdik, hozir maktabda o'tirgan bo'lardim-a...”

Shiftga qarab xayol surib yotgan

Muhammaddiyorning soati bizning vaqt bilan ertalabki to'qqizni ko'rsatmoqda. Hamma nonushta qilib bo'lgan.

Onasining: “Hozir zilzila bo'lsa ham rozi edim. Balki, shunda turib ketarmiding”, – degan achchiq tanbehi esiga tushdi. Qattiq silkinishdan qo'rqib uyg'onishi-yu, qiy-chuvga qaramay, eng muhim narsalari (o'zi yasagan o'n beshtacha qog'oz maket, hamyon, mashinacha, rangli qalamlar, marker, oq qog'oz, do'sti sovg'a qilgan yaltiroq tosh va buterbrod)ni papkasiga solib, deraza oldidagi o'rikka sakrashini xayol qildi.

Aytmoqchi, dadasi ishga ketmagan bo'lsa, mashina kalitini olvoladi va uyquning qolganini mashinada uraveradi. Xullas, buvisi aytganidek, bari yaxshilikka!

– Turganim bilan mashinaga chiqib uxlayveraman, – deydi ataylab onasining g'ashiga tegish yo aqlliligini namoyish qilish uchun.

Onasi yarim piyola muzdek suvni yuziga sepib, ishga ketgach, bari xomxayolli, onasi dunyodagi eng rahmsiz ona ekanini o'yladi...

2

Nonushtadan keyin chala qolgan darslarini qilishga o'tirdi. O'zi uy vazifalarini kecha tugatgan, lekin onasining: “Xating muncha xunuk, ko'p xato qilibsan”, – degan gapi uchun mashqni qaytadan ko'chirishi kerak.

Husnixatning o'zi nima keragi bor, tavba? Onasiga qo'ng'iroq qilib, bajarmasligini aytadi.

– Qayta yozmayman, oyi. Chiroyli bo'lishi shartmas, to'g'ri yozilsa bo'ldi...

– Muhammaddiyor, istasang, bib-binoyidek yozishingni, hatto yozuving husnixat sifatida “Word” dasturiga kiritilishi mumkinligini ham bilaman. Bilmaganimda, talab qilmasdim.

– Tushunmadim, qanday dastur?

– Kompyuterdagi matn bilan ishlovchi “Word” dasturini aytyapman. “Shriflar” degan joyini bossang, allaqancha husnixat turlari kelib chiqadi, bilasan-a?

– Ha.



– Ular qayerdan paydo bo'lgan?  
 – Bilmasam, kompyuter yozgan bo'lsa kerak.  
 – Yo'q. Bu yozuvlar sendek oddiy odamlarning xati asosida paydo bo'lgan. Demak, sen ham boshqalarnikiga o'xshamagan uslubga ega bo'lsang, husnixatingdan foydalanishlari mumkin. Masalan, reklama, kitob va istalgan boshqa joyda sening xating ishlatilishi mumkin, tushundingmi?

– Qoyil!

– Endi bilyapsanmi qanday iqtidoring borligini? Ishga solmasang, u seni tark etadi. Hammasi xunuk yozishga ko'nikishdan boshlanadi.

3

“Tavba. Hozirgina yozgim kelmayotuvdi, oyimning gaplari bilan go'zal yozuv yaratish ishtiyoqi paydo bo'ldi...”

Qahramonimiz qoralama varaqqa mashq yozdi, suratga olib telefondan onasiga jo'natdi.

– Yomon emas, lekin bundanam yaxshiroq yoza olasan. Harflaringning bo'yini o'stirib, jamalak buramalarga nuqta qo'y. Qo'lni uzmay yozish kerak.

– Axir shunisi chiroyli-ku!

– Aytganimdek qilib ko'rgin.

Yana qoralamaga onasi aytganidek yozdi va shu nusxasi juda chiroyli chiqqanini o'zi ham payqadi. Daftarga ko'chirganda yanada tekis va chiroyli yozdi. Shunday qiziqib ketdiki, tamoman yangicha yozuv usullarini ixtiro qilishga tushdi.

*Gulgun Usmonova*



5. So'zlarning ma'nosini daftaringizga yozing va izohli lug'atdan tekshiring.

| So'zlar    | Taxminim | Lug'atda |
|------------|----------|----------|
| maket      | ...      | ...      |
| marker     | ...      | ...      |
| buterbrod  | ...      | ...      |
| xomxayol   | ...      | ...      |
| bib-binoyi | ...      | ...      |
| iqtidor    | ...      | ...      |
| qoralama   | ...      | ...      |





1. Muhammaddiyor uchun eng muhim narsalar nima?
2. Nima sababdan Muhammaddiyor onasining tanbehlariga qarshi bahona o'ylab topadi?
3. Sinfdoشلaringizdan kimning xatini chiroyli hisoblaysiz? Nima uchun?



6. Agar Muhammaddiyorning onasi quyidagidek yo'l tutsa, nima bo'lar edi? Fikringizni yozing.

Xunuk yozuvli daftarni yirtib tashlasa...

...

O'qituvchiga shikoyat qilsa...

...

Bolasini o'z ixtiyoriga qo'yib, e'tiborsiz bo'lsa...

...

...

...



Berilgan jummalardan foydalanib rasm asosida matn tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo'ying.



oltin kuz

ko'zi tushmoq

qalin dugonalar

shumshaymoq

mehr to'la ko'zlar

dag'-dag' titramoq

sharros yomg'ir

paqqos tushirmoq

xotirjam

mittigina





7. “Husnixating bo’lsa...” matni asosida quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

|   |   |   |
|---|---|---|
| I.<br>Muhammaddiyor nima uchun onasini dunyodagi eng rahmsiz ona deb o’yladi? | A | Xunuk yozgani uchun tanbeh bergani tufayli              |
|   | B | Mashinaning kalitini bermagani uchun                    |
|   | D | O’g’lini uyg’otgani uchun                               |
|   | E | Papkasiga muhim narsalarini solib qo’ymagani uchun      |
| II.<br>O’g’lining yozuvini o’zgartirish uchun ona qanday usulni o’ylab topdi? | A | Rangli qalam va marker sovg’a qilishini aytdi.          |
|   | B | Yozuvi “Word” dasturiga kiritilishi mumkinligini aytdi. |
|   | D | Kompyuter olib bermoqchi ekanini aytdi.                 |
|   | E | Uy vazifasini qayta yozish kerakligini aytdi.           |
| III.<br>Muallif bu matn orqali nima demoqchi bo’lgan?                         | A | Darslarni o’z vaqtida tayyorlash kerak.                 |
|   | B | Erta turish zarur.                                      |
|   | D | Matn dasturlarini o’rganish shart.                      |
|   | E | Inson harakat qilsa, barcha ishni uddalashi mumkin.     |



8. Matn asosida to’g’ri ma’lumotlarni aniqlang. Noto’g’ri ma’lumotlarni to’g’rilang.

1. Hikoya qahramoni do’ssti sovg’a qilgan markerni papkasiga solib yuradi.
2. Oyisidan tanbeh eshitmaslik uchun mashinada uxlaydi.
3. Hikoya qahramonida yangi yozuv ixtiro qilish ishtiyoqi paydo bo’ldi.
4. Qoralama varaqqa mashq yozdi va devorga ilib qo’ydi.
5. Yozuvi chiroyli chiqishi uchun qo’lni uzmay yozish kerakligini bildi.
6. Muhammaddiyor ham chiroyli, ham xatosiz yozish kerak deb o’ylaydi.



9. Berilgan so’zlarni talaffuz qilib ko’ring. Ularning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?

okean

kauchuk

oila

shior

shoira

duo

maosh

muammo





Ayrim so'zlarda unlilar yonma-yon keladi. Ularning talaffuzi va imlosi farqlanishi mumkin.

**Imloda:**

*muomala, muallim, doimo,  
media, badiiy.*

**Talaffuzda:**

*momila, mallim, doyimo,  
mediya, badiy.*



Sizningcha, so'roq belgisi o'rniga qanday atama yozilishi kerak?

muallif

sarlavha

?

Abdulla Qahhor

BEMOR

Osmon yiroq, yer qattiq.  
Maqol

?  
manbasi

matn

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi, baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi. Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonona bor. Bu doktorxonona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayin Abdug'aniboy omborida qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonona bormay, Simga ketgan edi.



Epigraf – matn mazmunini ifodalaydigan maqol, hikmatli so'z, she'r yoki biror manbadan olingan parcha. U sarlavhadan keyin, o'ng tomonda yoziladi.





### 10. Sarlavhalarga mos epigraflar topib yozing.

|                     |     |
|---------------------|-----|
| Til – dil tarjimoni | ... |
| Vatan muqaddasdir   | ... |
| Muomala odobi nima? | ... |
| Tabiatni asraymiz   | ... |



So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy ona tilimiz rivojiga qanday hissa qo'shgan deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni daftarga yozing.

1.

4.

2.

5.

3.

6.



1. Nima uchun ba'zi bolalar o'qishni, bilim olishni xohlamaydi?
2. Sizda ham shunday holat bo'lib turadimi? Javobingizni izohlang.



### Qayerdasan, maktabim?

... Meni aldab-suldab ko'chaga haydab chiqarishdi, ha, shunday qilishdi. Bo'lmasa, teatrdan ish to'lib yotgan edi. Hech bo'lmasa, ko'cha eshik oldida turib bilet yirtay desam, "O'shanga ham ma'lumot kerak", – deyishdi. Gapni qarang-a. O'qing, o'rganing emish! Nega o'qir ekanman? Nega?

To'xtang, nega endi ishim doim ortga ketaveradi? Agronom bo'ldim – quvildim. Shoir bo'ldim – nomim yomonga chiqdi. Injener bo'ldim – arang qochib qutuldim. Nega?

**vab-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

*Zokirjon.com vab-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.**

**5-sinf ona tili 2-qism darsligini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**



***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud***

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Darsliklarning elektron varianti**
- 9. Maktab ish hujjatlari**
- 10. Direktor ish hujjatlari**
- 11. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 12. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 13. Psixolog hujjatlari**
- 14. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 15. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 16. Besh tashabbus hujjatlari**
- 17. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**